



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 27 - iyun

189-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2023-yil 22-iyundagi 394-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PF-81-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 22-iyundagi 394-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent shahar hokimining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori ijrosi haqida" 2023-yil 22-iyundagi 394-14-0-Q/23-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qaroriga muvofiq:

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (keyingi o'rinlarda - vazirlik) faoliyatining ustuvor yo'nalishlari;

ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "yo'l xaritasi";

ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, o'rmon xo'jaligi va gidrometeorologiya sohalaridagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish rejasi tasdiqlanganligi;

mamlakatimiz aholisining orasida ekologik ong va ekologik madaniyat

to'g'risidagi tushunchalarni mustahkamlash hamda rivojlantirish maqsadida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan muhim sanalar bo'yicha tadbirlar kalendar reja asosida respublika bo'ylab yuqori saviyada tashkil etilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yangihayot tumanida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan muhim sanalar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarning kalendar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari A.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi



X.Inogamov

Yangihayot tuman hokimining
2023-yil 27-iyundagi
189-14-220-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Yangihayot tumanida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan muhim sanalar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarning
KALENDAR REJASI**

T/r	Sana	Sanalar nomi	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Mas'ullar	Ommaviy axborot vositalari (yoritish)
1.	11-yanvar	Qo'riqxonalar va milliy bog'lar kuni (Day of Preserves and National Parks)	Qo'riqxonalar va milliy bog'larda o'simliklar hamda hayvonot olamini asrash borasida amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar, shuningdek, ilmiy tadqiqotlardan keng jamoatchilikni xabardor etish maqsadida tashrif markazlari («Hisor», «Chotqol» davlat qo'riqxonalari) hamda tegishli hududdagi ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etish va ularni ommaviy axborot vositalari, bosma va internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritish	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
2.	2-fevral	Jahon suvli-botqoqli yerlar kuni (World Wetlands Day)	Toshkent shahri hududidagi mavjud suvli-botqoqli yerlarning flora va faunasi, qushlar dunyosi, umuman, biogeografik xilma-xillikni muhofaza etishga qaratilgan ishlar yuzasidan ta'lim muassasalarida uchrashuv va tadbirlar o'tkazish; xalqaro Ramsar konvensiyasiga kiritilgan Dengizko'l, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi hamda Quyimozor va To'dako'l suv havzalariga press- turlar tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
3.	3-mart	Butunjahon yovvoyi tabiat kuni (World Wildlife Day)	Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar va o'simliklar turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risidagi Konvensiya Kotibiyati tomonidan tashkil etiladigan davra suhbatlarida ishtirok etish; yovvoyi tabiatni asrash undan foydalanish madaniyati bo'yicha ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni tashkil etish, bunda infografika, videoroliklar yaratishga e'tibor qaratish; ta'lim dargohlarida mutaxassislar ishtirokida targ'ibot-tushuntirish ishlarini tashkil etish	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)

4.	20-mart	Yer kuni (Earth Day)	Aholi, xususan, yoshlar o'rtasida «Yer sharini asraylik» shiori ostida tadbirlar o'tkazish; istirohat bog'lari va dam olish maskanlarida yer muhofazasiga qaratilgan tadbirlarni, aksiyalarni tashkil etish; ommaviy axborot vositalarida turkum chiqishlarni tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
5.	21-mart	Xalqaro o'rmonlar kuni (International Day of Forests)	O'rmon xo'jaliklarida o'simlik olamini asrash borasida amalga oshirilayotgan amaliy chora- tadbirlar bo'yicha keng jamoatchilik, xususan, ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etish va ularni ommaviy axborot vositalari, bosma va internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali xabardor qilish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
6.	22-mart	Jahon suv kuni (Jahon suv resurslarini muhofaza qilish kuni) (World Water Day yoki World Day of Water)	Mamlakatimizda suvni asrab-avaylash, undan tejab- tergap foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan mas'ul vazirlik va idoralar ekspertlari ishtirokida anjuman va tadbirlar, shuningdek, intervyular tashkil etish; suvdan foydalanish madaniyati, suvni tejash va undan oqilona foydalanish bo'yicha ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni tashkil etish, bunda infografika, videoroliklar yaratishga e'tibor qaratish; ta'lim muassasalarida mutaxassislar ishtirokida targ'ibot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
7.	23-mart	Butunjahon meteorologiya kuni (World Meteorological Day)	Aholining meteorologiya sohasini bilimlarini oshirishga qaratilgan turkum tadbirlarni tashkil etish; vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalai vakillari ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish; sana munosabati bilan tashkil etiladigan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
8.	25-mart	Yer vaqti (kuni) (Earth Nour)	Respublikada, eng avvalo, barcha darajadagi vazirlik va idoralar, tashkilot va korxonalar xodimlari hamda rahbarlari tomonidan belgilangan vaqtda elektr chiroqlari va boshqa elektr uskunalarini bir soatga o'chirishga qaratilgan aksiyalarni tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)

9.	30-mart	Chiqindisiz dunyo uchun xalqaro kuni (Zero waste day)	Chiqindisiz dunyo uchun xalqaro kunini o'tkazish orqali chiqindisiz tashabbuslarni ilgari surish 2030- yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanishning kun tartibidagi barcha maqsad va vazifalarni, jumladan, 11-maqsad hamda 12-maqsadga erishishga ham katta hissa qo'shadi. Ushbu maqsadlar ekologik barqarorlikni ta'minlaydi hamda iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tish uchun xizmat qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri markaziy xiyobonlari va istirohat bog'larini chiqindilardan tozalash aksiyalari o'tkaziladi.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspektsiyasi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
10.	1-aprel	Xalqaro qushlar kuni (International Bird's Day)	Aholi, xususan, yoshlar o'rtasida qushlarni asrab- avaylashga qaratiladigan «Qushlarni asraylik» tanlovini respublika miqyosida o'tkazish;istirohat bog'lari va dam olish maskanlarida qushlar muhofazasiga qaratilgan tadbirlarni, aksiyalarni tashkil etish; ommaviy axborot vositalarida turkum chiqishlarni tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspektsiyasi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
11.	15-aprel	Ekologiyaga oid bilimlar kuni (World environmental education day)	Respublikadagi ta'lim muassasalarida mutaxassislar ishtirokida ekologiya va atrof-muhitni asrashga oid bilimlarni oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish; ommaviy axborot vositalari orqali aholining ekologiyaga bo'lgan munosabati va madaniyatini oshirishga qaratilgan targ'ibot dasturlarini amalga oshirish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspektsiyasi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
12.	22-aprel	Xalqaro yer kuni (International Mother Earth Day)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etish; ta'lim muassasalarida Yer sayyorasini asrashga qaratilgan turli ekologik tadbirlar va aksiyalar o'tkazish; ommaviy axborot vositalari, bosma va internet nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yerni himoya qilish borasidagi ishlar haqidagi ma'lumotlarni keng jamoatchilikka taqdim etish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha infografikalar ishlab chiqish, videoroliklar yaratish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspektsiyasi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)

13.	27 - 29-aprel	«SOS sayg‘oq» sayg‘oqlarni muhofaza qilish kunlari («SOS Saiga» saiga protection days)	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Navoiy viloyatidagi muhofaza etiladigan hududlarga press- turlar tashkil etish; volontyorlar va keng jamoatchilik ishtirokida ta‘lim muassasalarida O‘zbekistonda birinchi marta «Sayg‘oqni asraylik» turkum tadbirlar va uchrashuvlar o‘tkazish; sayg‘oqlarni asrash va ko‘paytirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan mas‘ullarning intervyularini tashkil etish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
14.	5-may	Sayg‘oqlar xalqaro kuni (International day of saigas)	O‘zbekistonda birinchi marta «Sayg‘oqni asraylik» turkum tadbirlar va uchrashuvlar o‘tkazish; sayg‘oqlarni asrash va ko‘paytirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan mas‘ullarning intervyularini tashkil etish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
15.	12-may	Ekologik ta‘lim kuni (Environmental Education Day)	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari va ta‘lim muassasalarida mutaxassislar ishtirokida ekologiya va atrof-muhitni asrash, ekologik madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar, uchrashuv va aksiyalarni tashkil etish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
16.	13-may	Butunjahon ko‘chmanchi qushlar kuni (World Migratory Bird Day)	Aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida ko‘chmanchi qushlarni asrab-avaylash, istirohat bog‘lari va dam olish maskanlarida ko‘chmanchi qushlar muhofazasiga qaratilgan tadbirlar va aksiyalarni o‘tkazish; ommaviy axborot vositalarida turkum chiqishlarni tashkil etish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
17.	15-may	Xalqaro iqlim kuni (International Climate Day)	Mas‘ul vazirlik va idoralar, oliy ta‘lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etish; mas‘ul vazirlik va idoralar ekspertlari ishtirokida intervyular tashkil etish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)

18.	20-may	Jahon asalarilar kuni (World Bee Day)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etish; mas'ul vazirlik va idoralar ekspertlari ishtirokida intervyular tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
19.	22-may	Xalqaro bioxilma-xillik (yer florasini va faunasini) asrash kuni (International Day for Biological Diversity)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etish; mas'ul vazirlik va idoralar ekspertlari ishtirokida intervyular tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
20.	5-iyun	Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni (Ekolog kuni) (World Environment Day)	Vazirlik tomonidan joylarda sana munosabati bilan turkum tadbirlarni tashkil etish va «Tabiat himoyachisi» ko'krak nishonini topshirish; mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlarni tashkil etish; sana munosabati bilan tashkil etiladigan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
21.	17-iyun	Jahon saholashuv va qurg'ochilikka qarshi kurash kuni (World Day to Combat Desertification and Drought)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etish; sana munosabati bilan tashkil etiladigan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
22.	27-iyun	Jahon baliqchilik kuni (World fishing day)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etish; mas'ul vazirlik va idoralar ekspertlari ishtirokida intervyular tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)

23.	2-avgust	Bug‘u kuni (Deer Day)	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlaridagi mavjud muhofaza etiladigan hududlarda bug‘ularning yashashini e‘tiborga olib, press-turlar tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
24.	16-avgust	Uysiz hayvonlar xalqaro kuni (International Nameless Animals Day)	Uysiz hayvonlariga mehrlil munosabatda bo‘lish, ularga nisbatan turli shafqatsizliklarning oldini olish bo‘yicha aksiyalar o‘tkazish, infografikalar va videoroliklar yaratish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritishni tashkil etish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
25.	16-sentabr	Ozon qatlamini muhofaza qilish xalqaro kuni (International Day for the Preservation of the Ozone Layer)	Aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida qushlarni asrab- avaylashga qaratiladigan «Ozonni asraylik» tanlovini respublika miqyosida o‘tkazish; mas‘ul vazirlik va idoralar, oliy ta‘lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
26.	Sentabr oyining uchinchi shanbasi	Butunjahon tozalik kuni (World Cleanup Day)	Hududlarda aholining turli qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni keng jalb qilgan holda chiqindilarni yugurish orqali saralab yig‘ish tadbirlari — «Plogging» o‘tkazish; Amalga oshirilgan ishlarning samarasi, yig‘ilgan chiqindilarni miqdori, turlari, ishtirokchilar soni haqida ma‘lumotlarni «Butunjahon tozalik kuni» yetakchilariga umumlashtirish uchun taqdim etish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
27.	22-sentabr	Avtomobillarsiz kun (World Carfree Day)	«Mashinangizni uyda qoldiring!», Piyoda bo‘ling — toza havodan nafas oling!» shiorlari ostida barcha darajadagi vazirlik va idoralar, tashkilot va korxonalar xodimlari hamda rahbarlari tomonidan o‘z faoliyatini velosiped yoki ekologik transport orqali amalga oshirishga qaratilgan aksiyalarni tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)

28.	3-4-oktabr	Jahon qushlarni kuzatish kunlari (World Birdwatching Day)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
29.	4-oktabr	Jahon hayvonlarni muhofaza qilish kuni (World Animal Protection Day)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim dargohlari va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlarni, tadbirlarni tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
30.	10-noyabr	Ko'chib yuruvchi hayvonlar kuni (World Migratory Animals Day)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
31	15-noyabr	Ikkilamchi qayta ishlash kuni (Global Recycling Day)	Mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan anjuman va press-turlar, shuningdek, intervyular tashkil etish; har bir mahsulotdan ikkilamchi qayta ishlash orqali unumli foydalanish, bu orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo'shilishiga qaratilgan ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni tashkil etish, bunda infografika, videoroliklar yaratishga e'tibor qaratish; ta'lim muassasalarida mutaxassislar ishtirokida targ'ibot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)
32.	8-dekabr	Jahon iqlimni muhofaza qilish kuni (World Climate Day yoki World Day Against Climate Change)	Mas'ul vazirlik va idoralar, oliy ta'lim va ilmiy muassasalar ishtirokida konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar, tadbirlar tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	Tuman hokimining o'rinbosari (A.Nurmatov), Toshkent shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Yangihayot tuman inspeksiysi (B.Egamov).	Tuman hokimligi matbuot xizmati (N.Xakimova)

